

SANOAT BOZORLARI RIVOJLANISHIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATINING AHAMIYATI

Choriyeva Ferangiz Zohidovna

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda sanoat bozorlari rivojlanishida monopoliyaga qarshi siyosatning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Monopoliyalar bozor raqobatini cheklab, narxlarning sun'iy oshishiga, iste'molchilar tanlovining qisqarishiga va innovatsion rivojlanishning sustlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, samarali monopoliyaga qarshi siyosat sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobat muhitini yaxshilash uchun muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tezisda monopoliyaning shakllanish sabablari, uning sanoat sektorlariga ta'siri va bozor raqobatini cheklovchi omillar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan olib boriladigan monopoliyaga qarshi siyosat vositalari, jumladan, raqobatni himoya qilishga yo'naltirilgan qonunchilik, davlat tartibga solish mexanizmlari va raqobatni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar asosida rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilgan monopoliyaga qarshi strategiyalarning sanoat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Monopoliyaga qarshi siyosat, sanoat bozorlari, raqobat, davlat tartibga solishi, monopoliyalar, iqtisodiy o'sish, bozor mexanizmlari, bozor erkinligi.

Sanoat bozorlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bozorlarda raqobat muhitining mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va iste'molchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq, ayrim hollarda monopoliyalarning shakllanishi bozor muvozanatini buzib, raqobatni cheklaydi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.





Monopoliyalar odatda narxlarning sun'iy oshishiga, mahsulot tanlovining kamayishiga va bozorda yangi ishtirokchilarning paydo bo'lish imkoniyatlarini cheklashga olib keladi.

Monopoliyaga qarshi siyosat davlat tomonidan raqobatni ta'minlash va iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu siyosat nafaqat monopoliyalarning bozorga salbiy ta'sirini kamaytiradi, balki sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, sanoat bozorlarining rivojlanishi uchun davlatning monopoliyaga qarshi siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Monopoliyaga qarshi siyosat davlat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va iqtisodiy choralardan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi raqobat muhitini yaratish va uni saqlab qolishdan iborat. Sanoat bozorlari rivojlanishida ushbu siyosat quyidagi jihatlar orqali katta ahamiyatga ega:

Sanoat tarmoqlarida raqobatni rivojlantirish: Sanoat sektorida monopoliyaga qarshi siyosat erkin raqobat muhitini ta'minlab, ishlab chiqaruvchilarni samaradorlik va innovatsiyalarni oshirishga rag'batlantiradi. Natijada, sanoat tarmoqlarida mahsulot sifati oshadi va iste'molchilar uchun tanlov kengayadi.

Narxlar barqarorligini saqlash: Sanoat bozorlari monopoliyaga tushib qolganda, narxlar sun'iy ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi mumkin. Monopoliyaga qarshi siyosat esa narxlarning sun'iy o'zgarishining oldini olib, sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.


Sanoat korxonalarining bozorga kirishini yengillashtirish: Monopolistik sharoitda yangi sanoat korxonalarining bozorga kirishi qiyinlashadi. Monopoliyaga qarshi choralar esa ushbu to'siqlarni kamaytirib, kichik va o'rta sanoat korxonalariga rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu esa sanoat bozorlari rivojlanishining uzluksizligini ta'minlaydi.



Investitsiyalarni jalb qilish: Raqobatbardosh sanoat bozorlari investorlar uchun jozibador bo'lib, investitsiyalar oqimi oshadi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlab, investorlarning ishonchini mustahkamlaydi.

Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarni rag'batlantirish: Sanoat tarmoqlarida erkin raqobat bo'lishi innovatsion mahsulot va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi. Monopoliyaga qarshi siyosat sanoat tarmoqlarining zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishiga ko'maklashadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishda sanoat bozorlari va undagi sanoat korxonalar o'zining salmoqli hissani qo'shmoqda. Mamlakatimizda 2024-yilda sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 753,6 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,1 % ni tashkil etdi (1-rasm):



1-rasm. Asosiy sanoat tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, trln. so'mda¹

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (19,3 %), Navoiy viloyati (16,4 %),

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy <https://stat.uz/uz/> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomondan tayyorlandi



Toshkent viloyati (15,7 %), Andijon viloyati (10,2 %), Farg'ona viloyati (5,4 %) hamda Samarqand viloyati (5,2 %) hissasiga tog'ri keldi. Bu natijalarga yurtimizda erkin bozor iqtisodiyoti mexanizmini o'rnatish sanoat bozorlari rivojlanishida monopoliyaga qarshi kurashish orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda sanoat bozorlari rivojlanishida monopoliyaga qarshi turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoda va antimonopol qonunchilik rivojlantirilmoqda. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosat asosiy maqsadi bozorni erkin va samarali ishlashini ta'minlashdan iborat. Bu siyosatning asosi sifatida oxirgi yillarda olib borilayotgan islohotlarni aytishimiz mumkin. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyundagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonunini aytishimiz mumkin. Ushbu Qonunning maqsadi tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo'yish bilan bog'liq bo'lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bu esa o'z navbatida sanoat bozorlari rivojlanishida monopoliyaga qarshi siyosatining ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosat sanoat bozorlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqobatni rag'batlantirish, monopolistik tuzilmalarni yo'qotish va bozorni erkinlashtirish orqali sanoat tarmoqlarida samaradorlik, innovatsion faoliyat va yangi tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunday siyosatning davom ettirilishi, O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sanoat bozorlari rivojlanishida monopoliyaga qarshi siyosat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Erkin raqobatni ta'minlash, narxlar barqarorligini saqlash, sanoat korxonalarining rivojlanishiga imkon yaratish va investitsiyalarni jalb qilish orqali ushbu siyosat sanoat



tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shu sababli, davlat tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish va samarali mexanizmlarni joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyundagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108-sonli Farmoni

3. Qodirov R.S. (2020). Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatni shakllantirishning huquqiy asoslari. Toshkent: Adolat nashriyoti

4. Xodiev B.X. (2020). Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalar va raqobat muhitining o'rni. Toshkent: Sharq nashriyoti

5. Jo'rayeva N.X., Mamajonova D.V. "Iqtisodiyotni liberallashtirish davrida monopoliyaga qarshi qonunchilikning rivojlanish bosqichlari." Scholar, vol. 1, no. 35, 2023, pp. 207-215

6. Родионова Д.Н., Базаров А.Ц. (2015). Антимонопольная политика современной России. Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент.

